



BOLALARDA COVID-19 DAN KEYINGI DAVRDA BIRIKTIRUVCHI TO'QIMANING TIZIMLI KASALLIKLARINING LABORATOR VA KLINIK XUSUSIYATLARI

Muxtorov M.G.

pediatriya yo'nalishi 3-kurs magistratura talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent, T.f.n Yunusova R.T.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11229614>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-may 2024 yil

Ma'qullandi: 20-may 2024 yil

Nashr qilindi: 21-may 2024 yil

KEY WORDS

biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari, Covid-19, yuvenil revmatoid artrit, tizimli qizil yugurik, gemoglobin, LDG, reaktiv gepatit, xolesistopatiya, gepatomegaliya, bosh aylanishi, xotira pasayishi.

ABSTRACT

Yangi koronavirus infeksiyasi bilan organizmning deyarli barcha tizimlari patologik jarayonda ishtirok etadi, bu esa kasallik davrida yoki Coviddan keyingi davrda yangi kasalliklar, davolash yoki rehabilitatsiyani talab qiluvchi mavjud surunkali kasalliklarning asoratlari rivojlanishiga olib keladi. Kasallikdan keyin qolgan shikoyatlar va klinik ko'rinishlarning simptomlari terapiya va rehabilitatsiyasiz ko'p oylar davomida bezovta qilishi mumkin.

Muammoning dolzarbligi. Jon Xopkins universitetini bergan ma'lumotiga ko'ra hozirgi kunda koronavirus bilan kasallanganlarning 8 foizini bolalar tashkil etadi.

Koronavirus ACE-2 retseptorlar bilan o'zaro ta'sirlashish orqali, organizmdagi ko'plab organlar va tizimlarni zararlaydi. Bunday yallig'lanish reaksiyasi – multisistemali yallig'lanish sindromi (MIS-C) deb nomlanadi. Koronavirus qon-tomirlar ichki devorini zararlaydi va mikrosirkulyatsiyani buzadi, ko'pincha miokard va biriktiruvchi to'qimaga hujum qiladi. Bunday holatda Covid-19 haqidagi bilimlarning rivojlanishi dolzarbdir. Shu jumladan uning bolalarda biriktiruvchi to'qima tizimli kasalliklari klinikasi va kechishiga ta'sirini o'rganish ham dolzarb hisoblanadi.

Olingan natijalar. Tadqiqot respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kardiorevmatologiya bo'limida o'tqazildi. Biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari bor Covid-19 bilan kasallangan 26 ta bemor (1 guruh) va biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari bilan kasallangan, koronavirus pandemiyasigacha bo'lgan davrda statsionarga yotqizilgan 26 ta bemor (2 guruh) tekshiruvdan o'tqazildi.

Ikkala guruhdagi laborator ko'rsatkichlar bir-biriga solishtirib o'rganildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiqot guruhlarida laborator ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	1 guruh	2 guruh	p
Gemoglobin, g/l	97,5±1,5	107,9±3,5	≤ 0,05
Eritrotsitlar	3,9±1,3	4,7±0,3	< 0,05
Leykotsitlar, 10 ⁹ /л	10,2±0,5	8,2±0,4	< 0,05
Trombotsitlar	322,2±14,2	261,3±11,2	< 0,05
ECHT mm/s	8,5±2,2	7,8±2,7	
C reaktiv oqsil	13,5±3,4	10,4±3,2	≤ 0,05
Umumiy oqsil g/l	66,6±12,4	64,8±11,9	
LDG	395,4±33,6	302,1±30,7	< 0,05

Laborator tekshiruvlarda 1- guruhda 2-guruhga nisbatan gemoglobin miqdori kamayishi, trombotsitlar va LDG miqdori oshganligi ko'rish mumkin.

Qolgan ko'rsatkich deyarli o'zgarmaganligini 1-jadval orqali ko'rish mumkin.

Ikkala guruhda ultratovush tekshiruv natijalari bir-biriga solishtirib o'rganildi.

2-jadval


Tadqiqot guruhlarida ultratovush tekshiruvi(%)

Belgilar	II guruh	I guruh
Ichak pnevmatozi	10	16,7
Gepatomegaliya	16,7	30
Xolesistopatiya	20	43,3
Reaktiv pankreatit	6,7	20
Reaktiv gepatit	13,3	33,3

Ultratovush tekshiruvda 1-guruh: hepatomegaliya-30%, xolesistopatiya-43.3%, reaktiv pankreatit-20% , reaktiv gepatit-33.3% ko'rsatkich bilan 2-guruhdan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

1-diagramma

Tadqiqot guruhlarida bemorlarning shikoyatlari(%)



Biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari bor bemorlar covid-19 o'tqazgandan so'ng, bosh aylanishi, xotira pasayishi, yurakda og'riq, qabziyat, asabiylik, burun qonashi kabi shikoyatlar sezilarli oshganligi aniqlandi.

Xulosa. Laborator tekshiruvlarda gemoglobin miqdori kamayishi, trombositlar va LDG miqdori oshganligi qayd etildi.

Ultratovush tekshiruvda reaktiv gepatit, xolesistopatiya va hepatomegaliya sezilarli darajada ko'proq aniqlandi.

Biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari bor bemorlar covid-19 o'tqazgandan so'ng, bosh aylanishi, xotira pasayishi, yurakda og'riq, qabziyat kabi shikoyatlar sezilarli oshganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Feldstein, L. R., Rose, E. B., Horwitz, S. M., Collins, J. P., Newhams, M. M., Son, M. B. F., ... & Randolph, A. G. (2020). Multisystem inflammatory syndrome in US children and adolescents. *New England Journal of Medicine*, 383(4), 334-346.
2. Whittaker, E., Bamford, A., Kenny, J., Kaforou, M., Jones, C. E., Shah, P., ... & Levin, M. (2020). Clinical characteristics of 58 children with a pediatric inflammatory multisystem syndrome temporally associated with SARS-CoV-2. *Jama*, 324(3), 259-269.
3. Zimmermann, P. & Curtis, N. Coronavirus infections in children including COVID-19. An overview of the epidemiology, clinical features, diagnosis, treatment, and prevention options in children. *Pediatr. Infect. Dis. J.* 39, 355-368 (2020)
4. CDC COVID-19 Response Team. COVID-19 in children in the United States—February, 12–April 2, 2020. *MMWR* 69, 422-426 (2020)
5. Yan R, Zhang Y, Li Y. et al. Structural basis for the recognition of the SARS-Cov-2 by full length human ACE-2. *Science*. 2020
6. Lukassen S, Chua RL, Trefzer T. et al. SARS-CoV-2 receptor ACE2 and TMPRSS2 are predominantly expressed in a transient secretory cell type in subsegmental bronchial branches (preprint); bioRxiv. 2020